



## Ish izlash maqsadida viza olishga kerakli hujjatlar haqida eslatma

Ushbu visa 3-chi davlatdan kelgan oliy ma'lumotga ega qiziqish bildirgan mutaxassislarga ko'pi bilan 6 oy davomida o'z kasbi bo'yicha ish qidirish maqsadida Germaniyaga safar qilish imkoniyatini beradi.

Mutaxassislar emigratsiyasi haqida umumiy ma'lumotlarni [ushbu web-sahifadan](#) olishingiz mumkin.

**Viza olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishingiz lozim:**

- fuqaro pasporti
- viza so'rovnoma (va **Germaniya Federativ Respublikasida istiqomat qilish haqidagi qonunning 55 moddasi 2 bandiga binoan ariza**)
- mehnat faoliyati aks ettirilgan tarjimai hol, kasbiy ma'lumot haqidagi hujjatlar (attestat, diplomlar va boshqalar)
- oliy ma'lumot haqida Germaniya oliy o'quv yurti diplomi yoki Germaniya oliy o'quv yurti diplomiga mos keladigan Germaniyada tan olinadigan xorijiy diplom
- rejalashtirilgan ish qidirish maqsadidagi safarni asoslovchi xat (tarmoq, viloyat, rejalashtirilgan istiqomat qilish/yashash joyi va hokazo)
- agar mavjud bo'lsa: ish qidirishga tayyorgarlik ko'rganingizni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Sizning xorijiy diplomingiz tan olinishi yoki Sizning xorijiy diplomingiz Germaniyaning qaysi diplomiga mos kelishini ANABIN ma'lumotlar bankining [www.anabin.kmk.org](http://www.anabin.kmk.org) web-sahifasiga so'rovnoma yuborish orqali bilib olishingiz mumkin.

Arizangiz bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinganidan so'ng, visa olishdan avval Germaniyaga kelgandan to ish boshlagunga qadar bo'lgan vaqt oralig'iga berilgan **tubbiy sug'urta mavjudligini tasdiqlovchi hujjat** taqdim etishingiz lozim, agarda bunday hujjatni Siz avvalroq topshirmagan bo'lsangiz.

**Viza olish uchun barcha kerakli hujjatlarni topshirish lozimligiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz! Barcha kerakli hujjatlar topshirilmasa elchixona viza arizasini rad etishi mumkin.**

Tajribaga ko'ra, viza talabnomangizni ko'rib chiqish muddati 7-14 kunni tashkil etadi, biroq, ayrim hollarda ko'rib chiqish muddati yuqorida keltirilgan muddatdan farq qilishi mumkin.

Viza talabnomangiz bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinsa, elchixona Siz bilan bog'lanadi. Qabul qilingan qaror haqida boshqa yo'l orqali ma'lumot berilmaydi. Rad javoblari (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin. Hujjatlarni ko'rib chiqish davrida ish holati bo'yicha hech qanday ma'lumot berilmaydi, hatto ish beruvchi yoki ish holatiga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarga ham.

**Viza badali** 60 yevroni (01.09.2017dan 75 yevroni) tashkil etadi va to'lov hujjat topshirilayotganda amalda bo'lgan rasmiy kurs bo'yicha **faqat AQSH dollarida** amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar va viza bo'limining qabul vaqtlari „[Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma](#)“ va „[Qabulga yozilish tizimi haqidagi eslatma](#)“ da ko'rsatilgan.